ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

POMIDORNI SAQLASH VA QURITISH TEXNOLOGIYASI

Saydalov Faxriddin Muradullaevich
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. O‘zbekistonda sabzavot ekinlari ichida pomidor eng ko‘p ekiladi. Pomidor mevalarining keng miqyosda ishlatilishi ularning yuqori oziqaviy qiymati bilan belgilanadi. Mevalari yangiligicha hamda qayta ishlangan holda iste’mol qilinadi. Pomidor mevalari yuqori parhezboplik va shifobaxshlik xususiyatlariga ham ega. Pomidor mevalarini kundalik ratsionda iste’mol qilish inson organizmiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.
Kalit so‘zlar: FAO tashkiloti, shifobaxsh, saqlash, konservalash, quritish.
Аннотация.Среди овощных культур в Узбекистане наибольшее распространение получили томаты. Широкое использование плодов томата обусловлено их высокой пищевой ценностью. Плоды употребляются как в свежем виде, так и в переработанном. Плоды томата также обладают высокими диетическими и лечебными свойствами. Употребление плодов томата в ежедневном рационе оказывает положительное влияние на организм человека.
Ключевые слова: организация ФАО, лекарственные, хранение, консервирование, сушка.
Annotation. Tomatoes are the most widespread among vegetable crops in Uzbekistan. The widespread use of tomato fruits is due to their high nutritional value. Fruits are consumed both fresh and processed. Tomato fruits also have high dietary and medicinal properties. The use of tomato fruits in the daily diet has a positive effect on the human body.
Keywords: FAO organization, medicinal, storage, preservation, drying.

KIRISh

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabr PQ-5853-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasini 2020-2030 yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi” aholini oziq-ovqat xavfsizligini va to‘g‘ri ovqatlanish madaniyatini ta’minlash asosiy vazifalardan biri qilib belgilangan. Mamlakatimizda sabzavotchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va mahsulot eksport salohiyatini kuchaytirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Dunyo bo‘yicha hozirgi kunda pomidor ekilgan maydonlar 5.0 mln ga dan oshdi, uning hosildorligi ochiq maydonda 70-100 t/ga, issiqxonalarda 180-200 t/ga, gidroponika sharoitida esa 250-350 t/ga yetmoqda. FAO tashkiloti bergan ma’lumotga ko‘ra, dunyo bo‘yicha issiqxonalar maydoni Ispaniyada - 52 ming, Yaponiyada - 42 ming, Xitoyda - 1500 ming, Tursiyada – 35 ming, Italiyada – 20 ming, Niderlandiyada - 10 ming, Marokkoda - 10 ming, Fransiyada - 8,5 ming, Polshada 6,3 ming, Germaniyada - 3,7 ming, Meksikada - 15 ming, Rossiyada 3,1 ming, Ukrainada - 8,0 ming, Qozog‘istonda - 2899, Tojikistonda - 72,75 va O‘zbekistonda - 8,3 ming gektarni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi 2018-2030 yillarda issiqxonalarning rivojlanish istiqbollari xaqida OOO “ZAMONAVIY ISSIQXONA” tashkiloti bergan ma’lumotga ko‘ra, respublikamizda 2030 yilga borib 65-70 ming gektarli zamonaviy issiqxona komplekslari faoliyat ko‘rsatadi. 2018- 2030 yillarda har yili o‘rtacha 4230,8 gektar va hammasi bo‘lib 55 ming gektar issiqxona komplekslari qurilishi rejalashtirilgan.

Pomidor ituzumdoshlar Solanum lycopersicum oilasiga mansub o‘simlik bo‘lib, dunyoda sevib

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

iste'mol qilinadigan sabzavot hisoblanadi. O'simlikning vatani Janubiy Amerikaning Peru va Ekvador qismi hisoblanadi. Hozirgi kungacha Meksikada yovvoyi turlarini uchratish mumkin. Meksikada birinchi bor bu o'simlik madaniylashtirilgan. Asteklar bu o'simlikni "tumantla" deb ataganlar. 1523 yil Ispanlar Meksikani bosib olganlaridan so'ng uning yovvoyi urug'i boshqa o'simliklarga qo'shilib, Yevropaga kelib qolgan. 1554 yilda ispan botanigi Pero Andrea Mattiol va boshqalarning yozishicha, bu o'simlikni zaharli, iste'mol uchun yaroqsiz deb atashgan. Haqiqatan ham ituzumdoshlar oilasiga kiradigan bu sabzavotda alkaloid toksinlari uchraydi, bu oz miqdorda bo'lib, inson hayoti uchun xavfsiz hisoblanadi. Pomidor Yevropa va Gollandiyada shifobaxsh o'simliklar yetishtiriladigan botanik maydonlarda ham o'stiriladi.

Muhokama va natijalar

Pomidor mevalarini saqlash

Pomidorni boshqa sabzavotlarga qaraganda saqlash ancha mushkul. Shunday bo'lsa-da, uni 2-3 oy saqlash mumkin. Pomidorning 60-70 g keladigan hosillari, kichik hosilli navlariniki 35-50 grammlilari yaxshi saqlanadi. Tarkibida suv miqdori ko'p bo'lgan navlarining mevasi uzoq vaqt saqlanmaydi. Pomidor po'stining qalinligi, mag'zining qattiqligi va yorilishga chidamliligi uning saqlanuvchanligini belgilaydi.

Saqlash uchun to'liq shakllangan och ko'k pomidor meva bandi bilan teriladi. Ular shikastlanmagan, kasallik va zararkunanda zararlamagan hamda unchalik kichik bo'lmasligi lozim.

Pomidor turli xil pishish darajasida to'liq qizarib pishgan, chala pishgan (pushtirang va qizara boshlagan davr) va och ko'k hamda ko'k ranglarga kirgan vaqtda terib olinadi. Pomidor omborlarda yashiklarga solinib saqlanadi. Bunda yashiklar eniga ikki qator, tepasiga sakkiz-o'ntadan qilib, uzunasiga esa istalgancha joylanadi. Taxlar orasida Pomidor yetishtirish (ochiq maydonda) 0,6-1,5 m li yo'lak, yashiklar o'rtasida esa 5-10 sm oraliq qoldirish tavsiya etiladi. Qizil rang pomidorlarni 30 kungacha, dumbullarini 40-50 kun, ko'kishlarini esa 80 kungacha saqlash mumkin.

Och ko'k pomidorning pishib yetilishi uchun harorat +10 +12 ^{0}S bo'lgani ma'qul. Bundan yuqori haroratda pomidorning pishib yetilishi tezlashadi, past haroratda esa tezda kasallanadi. Pishgan pomidorni esa -1 ^{0}S da sovitgichda saqlash mumkin. Bunda havoning nisbiy namligi 90-95% atrofida bo'lishi kerak.

Pomidorni sutkasiga 8-10 soat etilen gazi bilan ishlash uning pishib yetilishini 3-4 marta tezlashtiradi. Pomidorni saqlash mobaynida muntazam nazorat qilib turilishi lozim.

Uy shariotida pomidorni quritish.

Pomidorni quritish konserva qilishdan ko'ra osonroqdir. Pomidorni uy sharoitida quritishda quyidagi ketma-ketlikka rioya qilish kerak:

1. 3 kg pomidor sotib oling. Pomidorning barcha navlaridan quritishda foydalanishingiz mumkin. Asosiysi, ular pishgan bo'lishi kerak;
2. Ularni yuving, quriting va teng ikkiga bo'ling;
3. Keyin choy qoshiq bilan pulpasini olib tashlang. Siz uni qurita olmaysiz, lekin uni boshqa maqsadlarda ishlatishingiz mumkin, uni tashlamang;
4. Ikkiga bo'lingan pomidorning ustiga tuz (2 choy qoshiq) va o'tlar (rayhon, bibariya yoki boshqa xush ta'm ziravorlar) seping;
5. Keyinchalik, bo'laklangan pomidorlarni quritgichga 5-6 soat davomida 70 daraja haroratda joylaymiz;
6. Yoki pechda 6-7 soat davomida 80 darajagacha isitiladi. Va bo'laklangan pomidorlarni

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

aylantirishni unutmang.

Tayyor mahsulotni mato idishlarda quruq joyda yoki muzlatgichda saqlashingiz mumkin. Oxirgi variant eng mos keladi, chunki bu holda foydali moddalar yaxshiroq saqlanadi. Ammo, agar imkon bo‘lmasa, birinchi variant amalga oshiriladi. Asosiysi, mato havo o‘tishiga imkon beradi.

Quyoshda quritilgan pomidorning foydali jixati.

Pomidorlar ozuqa moddalariga boy. Ular tarkibida:

- A, B, K, PP vitaminlari;
- Yod, magniy, glyukoza va marganes;
- karotin;
- foliy va askorbin kislotalar;
- Klechatka va pektin.

Quritish jarayoni sanab o‘tilgan elementlarning ko‘pini ancha uzoq vaqt saqlashga imkon beradi.

Ushbu sabzavotlarning yana bir qancha foydali xususiyatlari bor:

- Pomidor beri-beri bilan kurashishga yordam beradi;
- Ularda mavjud bo‘lgan klechatkalar tufayli ular ichak faoliyatini normallashtiradi, ich qotishini davolaydi;
- Pomidorning xolesterin miqdorini kamaytirishi, shu orqali qon tomirlarining tiqilib qolishi va xolesterin qatlamlari paydo bo‘lishining oldini olishi ilmiy jihatdan isbotlangan;
- Ulardan muntazam foydalanish likopenning yuqori miqdori tufayli xotirani yaxshilaydi. Bu, shuningdek, DNKni himoya qiladigan va shish paydo bo‘lishining oldini oladigan eng kuchli dietali antioksidantdir.

Ularning kamchiliklari ham bor. Pomidorlardan foydalanish oshqozon- ichak kasalliklari bilan og‘rigan odamlarga cheklanishi kerak.

Bundan tashqari, agar siz ularni ko‘p miqdorda iste’mol qilsangiz, vaqt o‘tishi bilan bo‘g‘imlarda va buyrak toshlarida tuzlarning cho‘kishi mumkin. Ammo bunday nojo‘ya ta’sirlardan o‘zingizni himoya qilish oson. Siz shunchaki me’yorni bilishingiz kerak bo‘ladi.

Xulosa

O‘zbekistonda sabzavot ekinlari ichida pomidor eng ko‘p ekiladi. Pomidor mevalarining keng miqyosda ishlatilishi ularning yuqori oziqaviy qiymati bilan belgilanadi. Mevalari yangiligicha hamda qayta ishlangan holda iste’mol qilinadi. Ulardan turli sharbatlar, tomat qaylasi, pyure, souslar, marinadlar va ko‘plab mahsulotlar tayyorlanadi. Pomidor mevalari yuqori parhezboplik va shifobaxshlik xususiyatlariga ham ega. Pomidor mevalarini kundalik ratsionda iste’mol qilish inson organizmiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Pomidorni yetishtirshda agrotexnik talablari to‘g‘ri bajarilsa va saqlash talablariga rioya qilinib saqlansa xalqimizga sifatli mahsulot yetkazib bersak maqsadga muofiq bo‘lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zuev V.I., Qodirxo‘jaev O.Q., Adilov M.M., Akromov U.I. Sabzavotchilik va polizchilik. Toshkent: 2009. - b. 124-135.
2. O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jalik ekinlari Davlat reestri. - Toshkent, 2020. - 55 b.
3. Turkiya Respublikasi “Oziq-ovqat qishloq xo‘jaligi vazirligi” hamda “Denizbank” hamkorligida tayyorlangan “100 ta kitob”dan iborat to‘plami.
4. Zuev V.I., Abdullaev A.G. Sabzavot ekinlari va ularni yetishtirish texnologiyasi. T., O‘zbekiston,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

1997. 342 b.

5. Bo‘riev X.Ch, Zuev V.I., Qodirxo‘jaev O.Q., Muhamedov M.M. Ochiq joyda sabzavot ekinlari yetishtirishning progressiv texnologiyalari T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. - Toshkent: 2002. - b. 245-251.

6. Boltaev B.S., Sulaymonov B.A., Mavlyanova R.F., Xolmurodov E.A., Rustamova I.B. Sabzavot ekinlarining zararkunanda, kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari. Toshkent, 2013. - b. 23-29.